

ARAB TILIDA NIDO VA MUNADONING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

G'oziyeva Rayxona Akramjonovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Arabshunoslik Oliy maktabi 3-kurs talabasi

+998932364805

Ilmiy rahbar: **Muhammadjon Shomurzayev**

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi undalma uslublari tahlil qilinadi. Undalma harflari, turlari va ularning e'rob qoidalari ilmiy tarzda yoritiladi. Misollar orqali maqola undalma mavzusini o'quvchiga tushunarli va amaliy tarzda yetkazadi.

Kalit so'zlar: النداء (an-nidā), المنادى (al-munādā), undalma, nido harflari, e'rob, النكرة غير المقصودة (an-nakira al-maqṣūda), النكرة المقصودة (an-nakira al-maqṣūda), المضاف (al-muḍāf), الشبيه بالمضاف (ash-shabīh bi-l-muḍāf).

Аннотация: В данной статье анализируются стили обращения в арабском языке. Рассматриваются буквы призыва, типы обращения и их грамматические правила. Примеры помогают сделать тему обращения понятной и практичной для читателя.

Ключевые слова: النداء (ан-нида), المنادى (аль-мунада), обращение, буквы призыва, грамматика, العلم المفرد (аль-алям аль-муфрад), النكرة المقصودة (ан-накира аль-максуда), النكرة غير المقصودة (ан-накира гайр аль-максуда), المضاف (аль-мудаф), الشبيه بالمضاف (аш-шабих бил-мудаф).

Annotation: This article analyzes the styles of calling in the Arabic language. It examines calling particles, types of the called, and their grammatical rules. Examples help make the topic of calling understandable and practical for the reader.

Keywords: النداء (an-nidaa), المنادى (al-munādā), calling, calling particles, grammar, النكرة المقصودة (an-nakira al-maqṣūda), النكرة غير المقصودة (an-nakira ghayr al-maqṣūda), المضاف (al-muḍāf), الشبيه بالمضاف (ash-shabīh bi-l-muḍāf).

Arab tilida nido uslubi muhim grammatik vositalardan hisoblanib, tinglovchining e'tiborini o'ziga qaratish, his-tuyg'u, chaqiriq kabilarni ifodalashda qo'llanadi. Nido vositalarining to'g'ri qo'llanishi matnning mazmuniy ohangini va o'quvchi yoki tinglovchiga ta'sirini kuchaytiradi. Shu bois nido uslubi va uning grammatik xususiyatlarini o'rganish arab tili sintaksisini chuqur anglashda muhim o'rin tutadi.

Undalma uslubi (أسلوب النداء) — arab tilida murojaat yoki chaqiriqni ifodalaydigan grammatik tuzilma. U gapda kimga yoki nimaga murojaat

qilinayotganini bildirib, nutqqa ohang, emotsiya qo‘shish, diqqat jalb qilish uchun xizmat qiladi.

Undalma uslubi ikki asosiy qismdan iborat:

• **Undalma harfi (حرف النداء)** - chaqiriq, murojaat uchun ishlatiladigan yuklama.

Ular 7 ta: أ، أي، يا، آ، أيا، هيا، وا: ta:

Bunda أيا va أي yaqindagi undalma uchun, أيا va آ uzoqdagi undalma uchun, (واحسرتي!) esa qayg‘u-alam va motamni ifodalash uchun, وا har qaysisi uchun.

• **Munado (المنادى)** - undalma orqali murojaat qilayotgan shaxs yoki predmet.

Munadoning hukmi: lafzan yoki mahallan nasb, chunki munado asli to‘ldiruvchi (مفعول به) hisoblanadi. أُنَادِي مُحَمَّدًا birikmasining asli bo‘lib, fe‘li tushib qolgan va يا yuklamasi uning o‘rnini egallagan, shuning uchun, munadoni nasb qiluvchi omil tushib qolgan fe‘l-dir.

Munadoning e‘robi uning turiga bog‘liq va u 5 turga bo‘linadi:

الْعَلَمُ الْمَفْرَدُ ، النكرة المقصودة ، النكرة غير المقصودة ، المضاف ، الشبيه بالمضاف.

1. **الْعَلَمُ الْمَفْرَدُ** (mudof yoki unga o‘xshash bo‘lmagan atoqli ism): munadoning bu turi nima bilan rof bo‘lsa, shunga mabniy bo‘ladi. Misollar:

• يا أحمَدُ - يا: حرف نداء مبني على السكون، لا محل له من الإعراب.

أحمَدُ: منادى مبني على الضم في محل نصب.

• يا محمدان -

يا: حرف نداء مبني على السكون.

محمدان: منادى مبني على الألف في محل نصب.

• يا محمدون -

يا: حرف نداء مبني على السكون.

محمدون: منادى جمع مذكر سالم مبني على الواو في محل نصب.

2. **النكرة المقصودة**: noaniq holatdagi muayyan shaxs yoki narsaga murojaat qilinib, nido sabab ma‘rifa, ya‘ni aniq holatga o‘tadi va bu ham nima bilan rof bo‘lsa, shunga mabniy bo‘ladi. Masalan:

1. يا رجلُ --- منادى مبني على الضم في محل نصب.

2. يا طالبتان --- منادى مبني على الألف في محل نصب.

3. يا معلمون --- منادى جمع مذكر سالم مبني على الواو في محل نصب.

4. يا معلمات --- منادى مبني على الضم في محل نصب.

Izoh: الْعَلَمُ bilan النكرة المقصودة ning farqi shuki, الْعَلَمُ - atoqli ot nidodan oldin ham aniq holatda edi, keyin ham aniqligicha qoladi. النكرة المقصودة esa noaniq holatda edi, nido harfidan keyin kelgach, aniq holatga o‘tdi.

3. **النكرة غير المقصودة**: bunda muayyan kishi maqsad qilinmaydi va nasb bo‘ladi.

Masalan,

1. يا طالباً، اجتهد!

طالباً ---> منادى منصوب و علامة نصبه الفتحة

Yoki ko'zi ojiz kishining quyidagi gapi:

2. يا رجلاً، خذ بيدي.

4. **المضاف:** o'zidan keyin keluvchi mudofun ilayh bilan birgalikda ma'nosi tugal bo'luvchi ism bo'lib, bu ham nasb bo'ladi. Masalan:

1. يا صاحب البيت، ادخل.

صاحب ---> منادى منصوب و علامة نصبه الفتحة الظاهرة، البيت : مضاف إليه مجرور و علامة جره الكسرة.

2. يا طالب العلم، تعلم.

طالب: منادى منصوب و علامة نصبه الياء لأنه مثنى و هو مضاف، العلم: مضاف إليه مجرور و علامة جره الكسرة.

3. يا أبانا، علمنا الحكمة.

أبا: منادى منصوب ، و علامة نصبه الألف ؛ لأنه من الأسماء الخمسة، نا: ضمير متصل مبني في محل جر مضاف إليه .

5. **الشبيه بالمضاف:** munadoning ma'nosini tugal qiluvchi boshqa bir so'z qo'shilib keladi va nasb hukmida bo'ladi. Masalan:

1. يا حسناً خُلِّقْهُ، اشكر الله.


حسناً : منادى منصوب ، و علامة نصبه الفتحة، خُلِّقْ: مبتدأ مرفوع، و علامة رفعه الضمة الظاهرة، هُ: ضمير متصل مبني في محل مضاف إليه، والجملة الاسمية "خُلِّقْهُ" في محل نعت (صفة) لـ حسناً لأنها جاءت موضحة لمعنى المنادى.

2. يا طالباً للعلم اجتهد.

طالباً: منادى منصوب ، و علامة نصبه الفتحة ، للعلم: جار ومجرور متعلقان باسم الفاعل طالباً.

3. يا طالِعاً الجبل

طالِعاً : منادى منصوب ، و علامة نصبه الفتحة ، الجبل: مفعولٌ به منصوب لاسم الفاعل طالِعاً، و علامة نصبه الفتحة الظاهرة.



“أل” artikli olgan soʻzga nido qilish

Undalma “أل” artikli bilan kelsa, toʻgʻridan-toʻgʻri nido harfi ishlatilmaydi va bu ikkisining oʻrtasida bir vosita boʻlishi talab qilinadi. Buning uchun muzakkar uchun أيُّها, muannas jins uchun أَيَّتُهَا yuklamalari (undalmaning sonidan qatʼiy nazar) ishlatiladi:

1. يا أَيُّهَا النَّاسُ.

يا: حرف نداء مبني على السكون، لا محل له من الإعراب.
أيُّ: منادى مبني على الضم في محل نصب، ها: حرف للتنبيه، الناسُ: نعت مرفوع، وعلامة رفعه الضمة.

2. يا أَيَّتُهَا الْأُمُّ

يا: حرف نداء مبني على السكون، لا محل له من الإعراب.
أيَّةُ: منادى مبني على الضم في محل نصب، ها: حرف للتنبيه، الأمُّ: نعت مرفوع، وعلامة رفعه الضمة.

Shuningdek, koʻrsatish olmoshi ham kelishi mumkin:

يا هذا الرجل.

يا: حرف نداء مبني على السكون لا محل له من الإعراب، هذا: اسم إشارة مبني على الضم المقدر في محل نصب منادى، الرجلُ: بدل مرفوع وعلامة رفعه الضمة الظاهرة

الله lafzi bilan nido

Lafzi jalola الله ga nido qilishning 2 xil ko‘rinishi bor:

1) يا yuklamasi bilan va buning o‘zi ham 2 ga bo‘linadi:

— يا الله so‘zidagi alifni qat’iy qilish:

— يا الله so‘zidagi alifni vasliy qilish:

2) يا nido yuklamasi tushirib qoldiriladi, uning o‘rniga الله so‘zining oxiriga tashdidli م harfi qo‘shiladi va اللَّهُ shaklida qo‘llanadi.

الله : منادى مبني على الضم في محل نصب ، الميم المشددة : عوض من حرف النداء .

اللَّهُمَّ so‘zi qo‘llanishining 3 ko‘rinishi bor:

● To‘g‘ridan-to‘g‘ri Allohga murojaat qilish:

اللَّهُمَّ اغْفِرْ لِي - Ey Alloh, meni mag‘firat qil!

— bevosita duo va iltijo shakli.

● Javob berish yoki tasdiqlash ma‘nosida:

Ba‘zan “اللَّهُمَّ” so‘zi tasdiqlash, bir gapning haqiqatini kuchaytirib aytish uchun qo‘llanadi. Bu holatda u undalma emas, balki qat’iy tasdiqni ifodalaydi. Masalan:

- أَلَاذَّ فَعَلَ هَذَا؟

- اللَّهُمَّ نَعَمْ.

● Biror narsaning kam uchrashini, juda nodirligini bildirish:

Bu, asosan, adabiy matnlarda uchraydi. Gap egasi bir ishning nihoyatda kam sodir bo‘lishini, hatto kutilmasligini ta’kidlash uchun ishlatadi. Masalan, juda baxil kishiga qarata aytilgan quyidagi gap kabi:

اللَّهُمَّ إِنْ بَدَّلْتَ شَيْطَرًا مِنْ مَالِكَ فِي سَبِيلِهِ

Undalmaning tobe so'munado mabniy yoki mo (توابع المنادى): zlari'rob ekanligiga ko'ra tobe so'z ham turlicha bo'lishi mumkin. Agar **munado mabniy bo'lsa**, undan keyingi so'z 4 ta holat mavjud:

1) Tobe so'z raf bo'ladi: bunda الإشارة أيُّ، أيُّ، اسم الإشارة nido tarkibida bo'ladi:

يا أيُّها الرجل، يا هذه المرأة

2) Dommaga mabniy (tanvinsiz va ال artikli olmaydigan ma'tuf): badal masalan: يا سعيدٌ وخليُّ يا سعيدٌ وخليُّ

3) Nasb bo'ladi: bunga الartiklisiz, mudof vazifasidagi so'zlar kiradi: يا عليُّ أبا الحسن، يا خليلٌ صاحبٌ خالدٍ

4) Ham nasb, ham raf joiz: munadoning lafziga ergashgan holda raf, nasb o'rnida ekanligiga ergashgan holda nasb bo'ladi va buning ham 2 turi bor:

— الartiklini oluvchi sifat: يا خالدُ الحسنُ الخُلُقُ yoki يا خالدُ الحسنُ الخُلُقُ

— mufrod sifat, ta'kid, atf bayon yoki aniq holatdagi ma'tuf bo'lsa: يا عليُّ الكريمُ yoki الكريمُ،

خالدًا yoki يا خالدُ خالدُ

يا أبا الحسن Agar munado mansub mo'rob bo'lsa, tobelari ham mansub bo'ladi: صاحبنا

يا ذا الفضل وذا العلم

Bundan istisno 2 holat: Agar tobe so'z badal yoki "al"siz atf bo'lsa, unda mabniy bo'ladi.

Masalan:

يا أبا الحسن علي (Ali—badal → mabniy)

يا عبد الله وخالد ("al" yo'q → mabniy)

Nido harfining tushib qolishi

Agar nido harfisiz ham undalma tushunarli bo'lsa, nido harfi qo'llanmasligi mumkin va bu holatda nido harflaridan faqatgina يا taqdir qilinadi.

1. فاطمة، اكتبني

فاطمة: منادى محذوف منه حرف النداء مبني على الضم في محل نصب .

2. « فَمُ أَبَا تُرَابٍ، فَمُ أَبَا تُرَابٍ » [البخاري: ٢٨٩٩] .

أبا : منادى محذوف منه حرف النداء منصوب ، وعلامة نصبه الألف لأنه من الأسماء الخمسة، وهو مضاف ، تُرَاب: مضاف إليه مجرور ، وعلامة جره الكسرة .

3. أَيَّتُهَا الطَّالِبَاتُ

أَيَّة: منادى محذوف منه حرف النداء مبني على الضم في محل نصب، ها: حرف للتنبيه، الطالبات : نعت مرفوع ، وعلامة رفعه الضمة .

Munadoning quyidagi turlarida **nido harfi tushib qolishi joiz bo'lmaydi**: المنادى المندوب والمنادى المستغاث والمنادى المتعجب منه والمنادى البعيد.

Chunki bu turlarda maqsad ovozni cho'zish, nido harfini tushirib qoldirish bu maqsadga zid bo'ladi.

Izoh: undalmaning bu turlari haqida quyida batafsil ma'lumot beriladi.

Nido harfini tushirish kam uchraydigan holatlar esa: undalma ko'rsatish olmoshi bo'lsa. Masalan:

إِذَا هَمَلْتُ عَيْنِي لَهَا قَالَ صَاحِبِي:

بِمِثْلِكَ، هَذَا، لَوْعَةً وَغَرَامَ؟!

Shuningdek, quyidagilarda ham nido harfi tushishi kam uchraydi: النكرة غير المقصودة ، الشبيه بالمضاف

Munadoning tushib qolishi (حذف المنادى): ba'zida nido harfi bor bo'lsa-da, undan keyingi so'z, ya'ni undalma aytilmaydi va lafzan aytilmasa-da, ma'noda anglashinib turadi. Bu, asosan, balog'at va nutqni kuchaytirish uchun qo'llanadi va nido harfidan keyingi fe'l buyruq maylida bo'ladi:

"ألا يا اسجدوا" - bunda asl undalma "يا قوم" bo'lishi kerak edi.

Shuningdek, undalmaning maxsus holatlari va uslubiy turlari bo'lib, bulardan:

1. **المنادى المضاف إلى ياء المتكلم (egalik olmoshi “ya”ga izofa qilingan munado)**

Bunday undalmaning 3 turi bor:

- 1) اسم صحيح الآخر
- 2) اسم معتل الآخر
- 3) صفة

اسم صحيح الآخر – oxiri sog‘lom harf bo‘lgan ism (lekin ا ب va ا م so‘zlari mustasno). Bunda 6 holat bor:

- يا غلامِي: **يا غلامِي** ni sukun holatida qoldirish:
- يا غلامِي: **يا غلامِي** ni tushib qoldirib, oldingi harfni kasra qilish: { يَلْعَبَادِ فَانْقُون }¹
- Kasraning o‘rniga domma qo‘yish (juda kam uchraydi): يا اُمُّ لَا تَفْعَلِي
- يا غلامِي: **يا غلامِي** ni fatha bilan yozish: { قُلْ يَلْعَبَادِي الَّذِينَ اسْرِفُوا عَلَى أَنْفُسِهِمْ }²
- يا حسرتًا: **يا حسرتًا** ni alifga, undan oldingi harakatni fathaga o‘zgartirish:
- Alifni tushirib, faqat fatha qoldirish: "يا غلام" **يا غلام** وَلَسْتُ بِرَاجِعَ مَا قَاتَ مِنِّي بَلْهَفَ وَلَا بَلَّيْتُ وَلَا لَوْ أَنِّي

اسم معتل الآخر - oxiri illatli harf bo‘lgan ism. Bunda faqat bir holat bor bo‘lib, fathali "ي" qo‘llaniladi: **يا فتاي**

صفة – sifatlar (aniq va majhul nisbat sifatdoshlari, mubolag‘a siyg‘alari)

Bunda 2 holat joiz:

- يا مُكْرِمِي: **يا مُكْرِمِي** sukun bilan:
- يا مُكْرِمِي: **يا مُكْرِمِي** fatha bilan:

ا ب va ا م so‘zlari birinchi shaxs birlikdagi egalik olmoshiga qo‘shilib, undalma bo‘lishining 10 holati bor. Yuqoridagi 6 qoida bu yerda ham amal qiladi va unga qo‘shimcha 4 qoida:

- يا أَبَتِ: **يا أَبَتِ** ni kasrali ta marbuta "ت" bilan almashtirish:
- يا أَبَتِ: **يا أَبَتِ** fatha bilan yozish:
- يا أَبَتَا: **يا أَبَتَا** ta va alif bilan (kam ishlatiladi):
- يا أَبَتِي: **يا أَبَتِي** ta va ya bilan (eng zaif shakli, she‘riyatda qo‘llanishi mumkin):

Agar undalma "ي" egalik olmoshini olgan so‘zga mudof bo‘lib kelsa, "ي", albatta, yoziladi (sukun yoki fatha bilan): **يا ابن أخي**

- Bundan istisno: **ابن عم** va **ابن أم**. Bu birikma uchun 4 qoida bor:

¹ [سُورَةُ الزُّمَرِ: ١٦]

² [سُورَةُ الزُّمَرِ: ٥٣]

- يا ابنَ أمّ harfi fatha yoki kasra bilan:
- يا ابنَ أُمّي yoziladi: "ي"
- يا ابنةَ عَمّا "ي"ni alifga aylantirish:

2. **المندى المستغاث – yordam so‘rab undash:** balo, qiyinchilikni daf qilishda yordam berishi mumkin bo‘lgan shaxsga yordam so‘rash ma‘nosida murojaat qilish. Masalan: “يا لَأَفْوِيَاءِ لِلضُّعَفَاءِ” — “Ey kuchlilar, zaiflarga yordam bering!”

المستغاث - yordam so‘ralayotgan shaxs.

المستغاث له – u uchun yordam so‘ralayotgan shaxs.

- Bu turda nido harflaridan faqat يا ishlatiladi va hech qachon tushirilmaydi
- المستغاث ham tushib qolmaydi.
- المستغاث له tushib qolishi mumkin.

المستغاث 3 xil shaklda keladi:

1) يا لَقَوْمِي! – fathali zoida lam harfi:

يا: حرف نداء للاستغاثة واللام: حرف جر زائد لتوكيد الاستغاثة، وقومي: مجرور لفظاً بحرف الجر الزائد، وهو في محل نصب على النداء.

2) يا يَزِيدَا ning oxiriga alif qo‘shish:

يَزِيدَا: منادى مفرد معرفة، مبني على ضم مقدر على آخره منع من ظهوره اشتغال محله بالفتحة العارضة لمناسبة الألف الزائدة لتوكيد الاستغاثة.

3) Hech qanday qo‘shimchasiz, oddiy holatda: يا قَوْمُ!

✓ gapda keltirilsa, ل (kasrali lam) bilan jar qilinadi:

«يا لَقَوْمِي لِلْعِلْمِ» — “Ey qavmim, ilimga madad beringlar!”

Izoh: bunda المستغاث uchun fathali, المستغاث له uchun kasrali lam ishlatilishi sababi ikkisini adashtirib yubormaslik uchun.

✓ Ba‘zan مِنْ bilan kelishi ham mumkin: يَا لِلرَّجَالِ مِنْ نَفَرٍ

3. **hayratni ifodalovchi undalma:** biror narsaning ko‘pligi, g‘ayrioddiylik yoki ajablanarli holatini ta‘kidlash uchun qo‘llaniladi. Bu tur hukmlari jihatidan “المندى المستغاث”ga o‘xshaydi.

Ya‘ni bunda ham “يا لـ” tarkibi ishlatiladi, ba‘zan esa oddiy “يا” bilan keladi. Masalan: "يا للماء!", "يا ماء!", "يا ماء!"

4. **qayg‘u-alam ifodalandigan undalma:** bu turda nido harflaridan, asosan, وا ishlatiladi. Ba‘zan يا ham kelishi mumkin. Munado va nido harfi tushirilmaydi.

Bu undalma 3 xil bo‘lishi mumkin:

Arab tilida undalma (النداء) — murojaat ma’nosini ifodalovchi muhim sintaktik usullardan biri bo‘lib, uning tarkibi, turlari va e‘rob qoidalari murakkab, ammo tartibli sistema asosida shakllangan. Maqolada undalmaning asosiy turlari keng yoritildi. Har

bir turga oid e‘rob qoidolari, ishlatilish maqsadlari, amaliy misollar hamda nahviy istisnolar alohida tahlil qilindi. Xulosa qilib aytganda, undalma arab tili grammatikasining o‘ziga xos murakkab, lekin juda boy bo‘limidir. U nafaqat grammatik tuzilma sifatida, balki adabiy nutqda, Qur‘on oyatlarida, hadislar matnida va klassik she‘riyatda uslubiy ta‘sir kuchini oshiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Undalma turlarining to‘liq o‘rganilishi arab tilidagi matnlarni chuqur anglash, tahlil qilish va to‘g‘ri tarjima qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdel-Halim, M. (2021). The Vocative System in Classical and Modern Standard Arabic: A Morphosyntactic Analysis. *Journal of Arabic Linguistics Studies*, 9(2), 55–68. <https://doi.org/10.36756/jals.v9i2.221> (in English)
2. Al-Dahdah, Antoine. (1992). *Dictionary of Arabic Grammar in Tables and Charts (Mu‘jam qawā‘id al-lug‘a al-‘arabiyya)*. Beirut: Maktabat Lubnān. 352 p. (in Arabic)
3. Al-Farahidi, Khalil ibn Ahmad. (1985). *Kitāb al-‘Ayn*. Qum: Al-Maktaba al-‘Ilmiyya. (Original work published ca. 770 CE). (in Arabic)
4. Al-Ghalayni, Mustafa. (2007). *Jāmi‘ ad-durūs al-‘arabiyya*. Cairo: Dār al-Ghad al-Jadīd. 590 p. (in Arabic)
5. Al-Rājiḥī, A. (2000). *At-Taṭbīq an-naḥwī*. Cairo: Dār an-Nahḍa al-‘Arabiyya. 320 p. (in Arabic)
6. Grande, B. M. (1998). *Course of Arabic Grammar in Comparative-Historical Light (Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osveshchenii)*. Moscow: RAN. 592 p. (in Russian)
7. Hassan, Abbas. (1975). *An-Nahw al-Wāfi. Part Four*. Cairo: Dār al-Ma‘ārif. 835 p. (in Arabic)
8. Ibn Hisham, Jamaluddin. (2005). *Sharḥ Qaṭr an-Nadā wa-Ball aṣ-Ṣadā*. Cairo: Dār as-Salām. (Original work published 14th century). (in Arabic)
9. Nasif, Khifni et al. (2006). *ad-Durūs an-Naḥwiyya*. Alexandria: Dār al-‘Aqīda. 415 p. (in Arabic)
10. Sibawayh. (1982). *Al-Kitāb*. Beirut: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya. (Original work 8th century). (in Arabic)
11. Yusuf, M. (2020). The Syntax of Vocatives in Arabic: Structural Types and Semantic Functions. *Arab World Journal of Linguistics*, 14(3), 77–96. <https://doi.org/10.24093/awjl.143.5> (in English)